

Demografik holat



(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 2524,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 10,8 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 896,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 35,5 %), qishloq aholisi soni 1627,9 ming kishini (60,5 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **10,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **13,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- **2,6 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,4 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Surxondaryo viloyati aholining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)




Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, Surxondaryo viloyati jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumanida 378,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi (15,0 % ni) va Qumqo'rg'on tumanida 223,4 ming kishini (8,8 %), Jarqo'rg'on tumanida 209,3 ming kishini (8,3%), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 104,4 ming kishini (4,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Denov tumanida 15,0 %ga, Qumqo'rg'on tumanida 8,8 %ga, Jarqo'rg'on tumanida 8,3 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz tumanida 4,1 % ni, tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 13,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,5promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaygan(2017yilning yanvar-mart oylarida 22,2 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Termiz tumanida (22,4 promilledan 24,0 promillega) va Sho'rchi (22,3 promilledan 22,6 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Termiz shaxri (18,8 promilledan 18,3 promillega) va Qiziriq tumanida (23,6 promilledan 21,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da
Surxondaryo viloyati	13 501	13359	98,9
Termiz sh.	659	651	98,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	861	863	100,2
Angor	693	687	99,1
Boysun	638	609	95,5
Denov	2 118	2 147	101,4
Jarqo'rgon	1 222	1 218	99,7
Qiziriq	934	884	94,6
Qumqo'rg'on	1 089	1 131	103,9
Muzrabot	736	744	101,1
Sariosiyo	1 032	988	95,7
Termiz	560	617	110,2
Uzun	959	799	83,3
Sherobod	934	917	98,2
Sho'rchi	1 066	1 104	103,6

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 2,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Boysun (4,6 romilledan 3,8 promillega), Denov (4,3 promilledan 3,8 promillega), Qiziriq (3,7 promilledan 3,4 promillega), Qumqo'rg'on (4,8 promilledan 4,3 promillega), Uzun (4,4promilledan 3,6promillega) va Sariosiyo (3,8 promilledan 3,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Surxondaryo viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-mart)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da
Surxondaryo viloyati	2 667	2571	96,4
Termiz sh.	148	177	119,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	161	171	106,2
Angor	139	148	106,5
Boysun	128	107	83,6
Denov	392	357	91,1
Jarqo'rg'on	235	230	97,9
Qiziriq	146	137	93,8
Qumqo'rg'on	258	235	91,1
Muzrabot	138	130	94,2
Sariosiyo	180	180	100,0
Termiz	128	135	105,5
Uzun	182	149	81,9
Sherobod	201	156	77,6
Sho'rchi	231	259	112,1

Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,2 %i o'simalardan, 6,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 16,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 51,3 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 6,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 29,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 3,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanish kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 10,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 10,8 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 10,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
10,8 ming kishi

Demografik holat

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,4 ming nikoh va 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,2 va 0,8 promilleni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik Yanvar-mart

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati, %da
Surxondaryo viloyati	4 121	4 445	107,9	424	500	117,9
Termiz sh.	214	245	114,5	48	44	91,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	266	216	81,2	17	34	200,0
Angor	221	216	97,7	26	18	69,2
Boysun	179	149	83,2	24	21	87,5
Denov	530	731	137,9	68	107	157,4
Jarqo'rg'on	296	416	140,5	29	37	127,6
Qiziriq	354	313	88,4	20	31	155,0
Qumqo'rg'on	308	348	113,0	28	24	85,7
Muzrabot	254	242	95,3	20	22	110,0
Sariosiyo	462	467	101,1	29	41	141,4
Termiz	132	163	123,5	32	22	68,8
Uzun	323	290	89,8	21	39	185,7
Sherobod	265	323	121,9	35	29	82,9
Sho'rchi	317	326	102,8	27	31	114,8

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,4 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	3,3	4,0
Ko'chib ketganlar	3,7	4,5
Migratsiya saldosini	- 0,4	- 0,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov (minus 0,2 ming kishi), Jarqo'rgon (minus 0,1 ming kishi), Angor (minus 0,1 ming kishi), Uzun (minus 0,1 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.